

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

RAUF PARFI SHE’RIYATIDA MILLIY VA UMUMBASHARIY TAMOIYILLAR

Guzal MATYOKUBOVA,
*Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori,
O’zJOKU katta o’qituvchisi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292225>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rauf Parfi she’rlarining g’oyaviy va badiiy xususiyatlari milliy hamda umumbashariy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Unda shoir she’rlarining jozibasi, matniy mukammalligi, so’zning ohang bilan baravar tug’ilishi haqida fikr yuritiladi. Shoirning g’oyaviy jihatdan o’quvchilik yillariga mansub she’rlari haqida mulohaza yuritilgan va Rauf Parfi ijodiy prinsiplari turfa nazariy qarashlar orqali asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: she’r, obraz, g’oya, davr, fikr, milliy, nigoh, tahlil, go’zallik, dunyo.

Аннотация: В статье анализируются идейно-художественные особенности поэм Рауфа Парфи с национальной и общечеловеческой точки зрения. В нем размышляет о прелести стихов поэта, об их текстовом совершенстве, о гармонии слов и мелодии. Рассматриваются стихотворения поэта, идейно связанные с его студенческими годами, обосновываются творческие принципы Рауфа Парфи с различных теоретических позиций.

Ключевые слова: стихотворение, образ, идея, эпоха, мысль, национальный, взгляд, анализ, красота, мир.

Annotation: This article analyzes the ideological and artistic features of Rauf Parfi's poems from a national and universal perspective. It discusses the charm of the poet's poems, their textual perfection, and the harmony of words with melody. The poet's poems, which are ideologically related to his school years, are considered, and Rauf Parfi's creative principles are substantiated through various theoretical perspectives.

Key words: poem, image, idea, era, thought, national, view, analysis, beauty, world.

Rauf Parfi o’z ijodiga milliy zehniyat ruhini singdirgan, turkiy birlik g’oyalarini targ’ib qila olgan shoir, hissiy tafakkur kishisidir.

Rauf Parfining 1954-1955-yillarda yoza boshlagan she’rlaridan iborat qo’lyozmalari orasida Lenin, partiya, sovet, komsomol haqida she’rlari mavjud. Rauf Parfi o’z xotiralarida ilk yozilgan she’rlaridan biri Stalinga bag’ishlanganini e’tirof etgan.

Bu kabi zehniyat bilan voyaga yetayotgan adabiyot muhibining to’satdan antikommunist, antisovetchiga aylanib, ulkan milliyatchi shoirga evrilishi e’tiborni tortishi tabiiy. Shoirning 20 ta daftarida Lenin, partiya, sovet, komsomol va kommunizmga bag’ishlangan 19 ta she’r bor. “Sabr daraxti” kitobida esa uchta she’ri sovet tuzumi va Lenin shaxsini ulug’lab yozilgan. Shoirning “Sabr daraxti” kitobidagi bu she’rlariga kesatq, ironiya she’rlar degan nuqtayi nazardan

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

munosabatda bo‘lish mumkindir. 20 ta daftardan o‘rin olgan sovet g‘oyasini ilgari surib, yuksak kommunistik pafosda yozilgan she‘rlar Rauf Parfi o‘zi yashagan davr, davriy matbuot namunalaridan qattiq ta’sirlanganligini dalillaydi. Shu bois, o‘zi yashagan tuzumni madh etuvchi she‘rlar yozgan bo‘lishi ehtimoli yo‘q emas.

Ijodkor o‘z davridan tashqarida yashay olmaydi. Sovet ruhidagi she‘rlar bilan voyaga yetgan shoir she‘rlarida ham bu g‘oya o‘z ifodasini topishi tabiiy hol edi. Ijodining ilk bosqichlarida sovet g‘oyasini targ‘ib qilgan shoir she‘riyatida keyinchalik antisovetizm, antikommunizm va milliy zehniyat ruhidagi she‘rlarning paydo bo‘lishi e’tiborni tortadi.

Shoirning ilk milliy zehniyat ruhi bilan yo‘g‘rilgan asari “O‘zbek tili”[1] she‘ri bo‘lgan deyish mumkin. Agar Rauf Parfining tug‘ilgan yili 1940 yil deb qaralsa, bu paytda u 18 yoshda bo‘lib, shoirida ilk milliy tafakkur uyg‘onishi ana shu davrlarga to‘g‘ri kelgan.

O‘zbek tili

Hayhot toptagandi arab va mo‘g‘ul,

Umrining zanjirli yili.

Boshdan ne kechirding, mardona o‘g‘il,

O‘zbek tili, o‘zbek tili.

Seni naqadar sevaman ona,

Oh, yuragimning bulbuli

Bo‘lib sayragansan go‘dak chog‘imda

O‘zbek tili, o‘zbek tili.

“Turkiston yodi”, “Shoir qismati”, “She‘riyat” kabi mashhur she‘rlarining dunyoga kelishiga shoirning o‘smirligida yozilgan “O‘zbek tili” she‘ri zamin hozirlagan bo‘lishi mumkin. Rauf Parfi o‘smir yoshida Tyutchev, Blok, Fet, Bryusov, Nekrasov kabi ilg‘or rus adiblarining asarlarini o‘qish bilan cheklanmay, ularni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu o‘z vaqtida shoirida milliy zehniyatni, milliy shuurni kamol topishiga xizmat qilgan.

Rauf Parfi ijodida milliy tushunchalarning yuksala borishi uning Boltiqbo‘yi mamlakatlari shoirlari, turk adiblari bilan ijodiy aloqalarining o‘rnatilishi bilan tavsiflanadi. Latviyaga qilgan sayohati, milliy istiqlol tushunchasini bizning o‘zbek ziyolilaridan ancha ilgari anglab yetgan latish shoiri Uldis Berzinsh bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvi Rauf Parfi ijodiga jiddiy ta’sir etgani, shubhasiz. Nozim Hikmat, Robindranat Tagor, Viktor Xara, Pablo Neruda kabi milliy qahramonlar hayotini o‘rgangan shoir insoniy erk tushunchasini baland pardalarda kuylagan. Rauf Parfi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

jahon milliy ozodlik harakati kurashchilari ijodi va faoliyatini o‘rganib, yuksak darajada milliyatchi jadidga aylanadi.

She‘r inson tuyg‘ularining tarixi bo‘lib, bitta tuyg‘uning o‘zi bilan yuzaga chiqmaydi. She‘r uchun estetik tamoyillar bilan birga badiiy, falsafiy va psixologik xususiyatlar ham har doim muhim hisoblangan. Badiiy ma‘no tovlanishlari, kayfiyat daxlliligi, holat va harakatlar aniqligi, ichki nigohning yo‘nalishi, obrazlar dinamikasi va tashbehlarning ma‘noga ta‘sir etishi, tasvirning qamrovi – bularning har biri o‘quvchi zehniyatini axloqiy tamoyillardan ko‘ra ildam egallab oladi. “Avval xayol eding, bir xayol, xolos” der ekan shoir axloqiy tamoyillardan oldinroqshuurimizga go‘zallik tushunchasini eltadi, jozibali tushunchalarga tayanadi. She‘rdan inadigan estetik zavq “Kimga?”, “Nimaga?”, “Qayerda?”, “Qachon?” kabi savollarga o‘rin qoldirmaydi, undan ruhiyatimizga yetib keladigan go‘zallik, nafosat, kayfiyat oldin his-tuyg‘ularga, keyin idrokka ta‘sir etadi.

Ayniqsa, zamonaviy she‘r tahlillarida she‘rga axloq kodeksi normalaridan turib yondashuvga o‘rin qoldirmay, hissiyot orqali ruhni, xulqni tarbiya qilish mumkinligini ta‘kidlash zarur. Hissiyotni go‘zallikka, nafosatga, ozodlikka, nazokatga yo‘naltirayotgan har qanday she‘r bir vaqtning o‘zida ham estetik, ham axloqiy tushunchalarni shakllantiradi. Shu uchun ham shoirning she‘rdagi inkori iqror, rad etishi bog‘lanish, ishtibohi ishonch o‘rnida tushunilishi mumkin.

Shoirning har bir she‘rida obrazlar o‘ziga xos tarzda tasvirlanishi bilan birga ma‘lum bir xarakterni ifodalab keladi. Shoir tosh haqida yozadimi, (“suv ostida yaltiraydi tosh”), bulut haqidami (“Kulrang bulut kezinadi jim”), yomg‘ir haqidami (“Yomg‘ir yog‘ar shig‘alab yog‘ar”) va yoki qush haqida yozadimi (“Bir qushcha derazam yonida”) shoirning ichki poetik nigohi tufayli mukammal obraz vujudga keladi, bu o‘quvchining ichki dunyosiga, hissiy olamiga chizib qoldiriladi.

Mana shoirning mashhur she‘ri:

Bir qushcha derazam yonida

O‘tirar parishon va g‘arib.

Yig‘laydi ko‘zlari yonadi,

Ko‘zlari ikkita marvarid.

Bir ajib navoga o‘xshaydi,

Shoirda o‘xshaydi bir hassos.

Miskinsozchalmoqqa u shaydir,

Dardigabordir-ku, birasos.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Men unga qarayman ohista,
Men qushcha holiga yig‘layman.
Va lekin bilmayman, ne istar,
Bilmayman, hech qachon, bilmayman...

“Bir qushcha” – lirik qahramonning yig‘layotgan baxti, ehtimol, baxtsizligidir. Dunyoda izlab yurgan savollariga bera olmayotgan, lekin ichida javob tarzida yangrayotgan sadosi hisoblanadi. “Bir qushcha” shoirning nihoyatda go‘zal poetik topilmasi. Rauf Parfi ijodida talaygina bu kabi ulkan insoniy va g‘ayrishiuriy fojiani go‘zal kartina shaklida taqdim etgan she‘rlari borki, ularinitahlil qilish uchun tamoman yangi bir nazariy metod kerak bo‘ladi!

Bu she‘r Maftuna Xolova aytmoqchi “Rauf Parfi she‘riyatiga sinchiklab nazar soladigan bo‘lsak, ijodining dastlabki pallalarida u ko‘proq romantikaga moyil oshiq, yaproqlar shivirini tinglay biladigan sohir qalb sohibi, derazasi yoniga qo‘ngan g‘arib va parishon qushcha holiga yig‘laydigan ko‘ksi tiniq nozikta‘b shoirligini she‘rlari tasvirlab turibdi”[2] gina emas. Bu she‘rning tabiati u qadar jo‘n qarashni o‘ziga singdira olmaydi.

Bu bir vaqtning o‘zida hamma narsa va hech narsa haqidagi she‘rdir. Mana obrazning, iztirobning, tasvirning kuchi ushbu she‘rda uyg‘unlashib ketganday taassurot uyg‘otadi. Dunyoni ohanraboday ushlab turgan yer, osmon, quyosh, oy va yulduzlar o‘rtasidagi tortishish kuchiday bu she‘r insoniy tuyg‘ularni boshqarayotganga o‘xshaydi. Bu she‘r Rauf Parfi xazinasida yarqirab turgan olmos monanddir. U iztirob va shodlik o‘rtasidagi kurash masofasida aks ettirgan.

“Shoirda o‘xshaydi bir hassos”, deydi shoir! Bu she‘r shoir ichki olamida o‘sib borayotgan iztirobning, hayrat yuqtirayotgan qayg‘uning ramziga aylanadi. She‘rning har bir satrida tasvir quyuuq berilgan. Qayg‘uning, iztirobning, mavhum yig‘ining tasvirini hech bir shoir bu qadar quyuuq ko‘rsatib bergan emas!

Rauf Parfi qalamining uchida fojialarni ko‘tarib yuradigan shoirdir. U yaratgan obrazlar xarakterining kuchliligi she‘r va shoir psixologiyasining uyg‘unligi hamda dard mahobati bilan baland pardalarga ko‘tariladi. Yig‘layotgan ikkita marvaridning yonib turishi benihoya mukammal darajadagi metafora bo‘lib, shoir bu she‘rda metaforik cho‘qqiga ko‘tarilgan. Qayg‘uning, mavhum iztirobning, tushuniksiz dardning klassik darajadagi ifodasi, dard ham bu qadar go‘zal bo‘lishi ushbu she‘rda o‘z ifodasini topgan. Shoirning “Daryo mavjlariga yozilmish g‘azal” deb boshlanuvchi she‘rida ruhiyat va kayfiyat jihatdan “Bir qushcha derazam yonida” she‘riga o‘xshashlik, kayfiyat yaqinligi seziladi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Daryo mavjlariga yozilmish g‘azal,
Maysalar egilib o‘qiydir kitob.
Shodlanibxandalar otar birlahza,
Bir lahzahtortibqo‘yadioftob.

Bir tiriknafosatborliq, jahonda,
Qaltirab porlaydi shu‘laga o‘xshab.
Bir qushcha sayraydi mening ruhimda,
Men sening ismingni bilmayman, qushcham...[3. 47-b]

Yuqorida tahlilga tortilgan she‘r bilan ushbu she‘r (“Sakina”dagi emas, “Sabr daraxti” kitobidagi she‘r varianti nazarda tutilayapti – izoh G.M.) o‘rtasida shakliy, fikriy, ruhiy vobastalik bor. Ehtimol, ko‘proq she‘r oxiridagi ikki qator “Bir qushcha sayraydi mening ruhimda, Men sening ismingni bilmayman, qushcham...” satri “Bir qushcha derazam yonida”ni eslatayotgan bo‘lishi mumkin. Biroq birinchi va ikkinchi she‘r garchi kayfiyat va ruhiyatda yaqinlik bo‘lsa-da, aslida bir-biridan tubdan farqlanadi.

Birinchi she‘r mutlaqo lirik hikoyadir, inson ichki olamining voqeaband portretidir. Unda holat, kayfiyat, ruhiyat, tasvir, manzara – hamma-hammasi biriikkinchisining ichiga kirib, singishib ketgan. She‘riy satrlar, tashbehlar o‘rtasida irsiy belgi mavjuddek taassurot uyg‘otadi. Birinchi she‘rda ichkarida turib ruhiy manzaraga ko‘chib o‘tilgan bo‘lsa, ikkinchi she‘r tabiiy manzara bilan boshlanib, oxiriga kelganda individuallashadi. Bu ikki she‘r ana shu poetik xususiyatlari bilan bir nuqtada ham birlashib, ham ajrashib ketadi.

She‘r bir paytning o‘zida ijtimoiy va botiniy hayot o‘rtasidagi hissiy tafakkur namunasi o‘laroq idrokimizga o‘rnashadi. Ushbu she‘r o‘zbek tilida yaratilgan “Serenada” kabi adabiyotdagi o‘rnini mustahkamlasa, ajab emas.

Shoirning yoshlikning, yoshlarning, hayotning madhiyasiga aylanib ulgurgan “Yoshlik – zangor fasl”, deb boshlanuvchi she‘ri bor. Ushbu she‘r ham fojia va go‘zallikning bir nuqtada uchrshuvi mahsuli sifatida maydonga kelgan she‘r, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Asar har qanday go‘zallik fojيانing bir bo‘lagi ekanligini o‘zida mujassam etgan. Filologiya fanlari doktori Nodira Afoqova ushbu she‘rni sharhlar ekan, uni umrning to‘rt fasli bilan bog‘liqligini asoslaydi: “Rauf Parfining “Suvga cho‘kib ketgan bolam – yoshligim”, deb yozayotgan chog‘ida “Shabob” xayoliga

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

kelmagandir, ehtimol. Bu – insonning, san’atkorning o‘z ildizlariga g‘ayriixtiyoriy bog‘langanligi misolidir”[4].

She’rning sirli go‘zalligi, fojia silsilasi, mahzunlik falsafasi olima talqinlarida yangi ma’no kasb etganligini ko‘rish mumkin. Lirik qahramonning dard chekish mahorati bilan adabiyotshunos talqini aql va tuyg‘uning ko‘z ilg‘amas nuqtalarida kesishib o‘tgan kuzatiladi. Ushbu talqin kitobxonni she’r ortidagi ma’no va tasavvur kengliklariga olib chiqadi.

Umuman olganda Rauf Parfi fojialar shoiri. Uning har bir she’rida fojia bildirmaygina ta’qib qilib yuradi. Shuning uchun ham shoirning she’rlarida sokin pafos, mahzun intonatsiyaga duch kelinadi. Arastu “Fojia – she’riyatning oliy ko‘rinishi” [5.156-b.] ekanligini aytadi. Rauf Parfining she’rlaridagi fojiaviylik tragediya janri talablari kabi oxirida kimningdir o‘limi bilan tugallanadigan fojiaviylik emas, balki ruhning bezovtaligi, abadiy yolg‘izlik ko‘rinishidagi iztirobparastlik, Alloh va lirik qahramon muloqotidagi g‘amnishinlik, o‘zini izlash, taftish qilish, fosh qilish yo‘lidagi tushkunlik, ruhoni yolg‘izlik shoir she’riyatida fojining muayyan ko‘rinishi sifatida yuzaga chiqadi.

Shu uchun shoir she’riyatida ifoda, uslub, shakl, tasvir liniyasi, g‘oyaviy-emotsional ko‘rinish bitta jihatga – she’rdagi fojining ichki qurilishini ko‘rsatishga qaratilgan. Rauf Parfi she’rlaridagi ruhning tushkunligi bois adabiyotga kirib kelgan ilk pallalarida tanqidga uchragan edi. Tanqidlarga qaramay, bu fojiaviylik, bu tushkunlik shoir she’rlarining har bir davriga xos bo‘lib qoldi.

Biz Rauf Parfi she’riyati timsolida o‘zbek she’riyatining ba’zi bir qirralarini ham kuzatishga, ilmiy asoslashga muvaffaq bo‘ldik. “Rauf Parfi nigohi 60-yillarning oxiridan boshlandi va bu nigoh ostida adabiyotni ham shakl, ham mazmun jihatdan yangilab bergan 70-yillar avlodi paydo bo‘ldi hamda o‘z so‘zini aytishga kirishdi. Ularning so‘zlari qaysidir ma’noda Rauf Parfining so‘zlari, orzulari, intilishlari ham edi. Mening nazarimda, she’riyat haligacha Rauf Parfi adabiy nigohi va iste’dodi bilan yuksaltirib bergan poetik hudud bo‘ylab kezib yuribdi, o‘zini qanchalik shakl-u shamoyilga solmasin, yangi hududga ko‘tarila olgani yo‘q, Rauf Parfi qoldirgan tasavvurni o‘zgartira olgani yo‘q.”

Rauf Parfi she’riyatining poetik xususiyatlari o‘rganilar ekan, ramz-timsollar, tashbehlar, holat va manzaraning yuksak poetik ifodaga aylanishi, obrazlar dunyosi mukammallik kasb etganini kuzatish mumkin. Shoir she’rlaridagi psixologik jarayonlar, umumbashariy va milliy xususiyatlar uning boy tuyg‘ular olamida saralanib, ijodkor estetik idealini ifodalovchi bosh omilga aylangan.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

She’rlarda til va matn mukammalligi xususiyatlari bevosita shoirning matn ustida ishlash prinsiplari asosida ko‘rib chiqildi. Rauf Parfi she’rlarida so‘zlar zichligi, lingvomadaniy omillar, kam iste’molda bo‘lgan so‘zlarning faollashuviga turli prizmalardan qaraldi. Shoir “Mening yuragimga kelgil, malagim” deyish orqali “malak” so‘ziga, diniy ko‘lamdan tashqari yor sha’nini ulug‘lovchi yuksak ko‘lamdorlik baxsh etgani izohlandi.

Cho‘lpon va Rauf Parfi isyonida g‘oyaviy, shakliy, badiiy izchillik, yaqinlik bor. Biri ikkinchisining tadrijiy davomidek taassurot uyg‘otadi. Abdulhamid Cho‘lpon O‘rusiya bosqinining ilk pallalarida zulmning, zo‘ravonlikning, qullikning qonli xaritasini chizgan, xalqni ozodlikka chorlagan bo‘lsa, Rauf Parfi Cho‘lpondan salkam 60-70 yildan keyin Sho‘ro tuzumi davrida avj olgan fojialardan qutulish yo‘llarini axtaradi. Shu uchun Cho‘lponda mahzun, g‘amgusor, behalovat dardning mungli isyoni, Rauf Parfida shiddatkor, qyunli, mahobatli isyon suvrati ko‘zga tashlangan.

Xulosa qilib aytganda, Rauf Parfi she’riyati uzoq yillar o‘zining ma’rifiy go‘zalligi, ruhiy tarovati, ma’naviy muhofazasi bilan o‘zbek va umumshe’riyat o‘quvchilariga xizmat qilishda davom etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Парфи Р. 4-дафтар. № 5 – 26-кўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.
2. Холова М. Samxorfil.uz/ sayti.
3. Парфи Р. Сабр дарахти. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 47.
4. Nodira Afoqovanning facebookdagi shaxsiy sahifasi. <https://www.facebook.com/share/p/6DhmQmuf67xJyJgy/?mibextid=oFDknk>. OlimaushbumaqoladaAlisherNavoiyhamumrni, insonhayotinito‘rtfaslgaqiyoslaganigae’tiborqaratadi. Shuuchunham “shabob”(Navodirush-shabob)gaug‘uberadi.
5. Арасту. Поэтика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 156.